

ABU ALI IBN SINO ASARLARINING O‘ZIGA XOS DIDAKTIK XUSUSIYATLARI

Boydavlatov Azamat Ahmadali o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti magistranti

e-mail: azamatboydavlatov77@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sino asarlaridagi didaktik qarashlarning o‘ziga xos xususiyatlari aks ettirilgan.*

Kalit so‘zlar: *ibn Sino, didaktika, bilim, ko‘rsatmalilik, ta‘lim*

Annotation: *This scientific article reflects the peculiarities of didactic views in the works of the great scholar Abu Ali ibn Sina.*

Key words: *ibn Sina, didactica, knowledge, demonstrativeness, education*

Аннотация: *В этой научной статье отражены особенности дидактических взглядов в трудах великого ученого Абу Али Ибн Сины.*

Ключевые слова: *Ибн Сины, дидактика, знания, наглядность, образование*

KIRISH

Ma‘lumki, zaminimiz qadim-qadimdan butun dunyo ahliga o‘zining go‘zal tabiati va boy tabiiy boyliklari bilan bir qatorda, cheksiz ma‘naviy boylikni o‘zida jo qilgan bir necha o‘nlab allomalari bilan ham ma‘lum va mashxurdir. Shu nuqtayi nazardan muhtaram Prezidentimiz ilmiy merosimizni o‘rganish, qadrlash, targ‘ib etish va yoshlarimizni shu ruhda tarbiyalash masalalariga nihoyatda katta e‘tibor qaratib kelmoqdalar. Buning amaliy natijasi o‘laroq, bir qator olimlarimiz, tadqiqotchilarimiz, yosh izlanuvchilarimiz o‘z kitoblarida, ilmiy maqolalarida qomusiy allomalarimiz hayotini, boy ma‘naviy merosini tadqiq etmoqdalar.

X-XI asrlarda yashab, o‘z ilmiy faoliyatini olib borgan tibbiyot, falsafa, kimyo, handasa, fiqh va yana shu kabi bir nechta sohalarida samarali ijod qilgan buyuk qomusiy olim, G‘arbda “Avicenna” nomi bilan nom qozongan, Abu Ali ibn Sino, bundayin izlanishlarda izlanuvchilar tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganiladigan mutafakkirlardan biri hisoblanadi.

Ushbu ilmiy maqolamiz orqali buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino hazratlarining boy ma‘naviy merosini qisman o‘rgangan holda, asarlarda aks etgan didaktik qarashlariga nazar solmoqlikni ixtiyor etdik.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Abu Ali ibn Sino asarlarini o‘rganish, tahlil qilish, olingan natijalarni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha turli yo‘nalishlarda tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Mamlakatimiz ilmiy soha vakillarining alloma asarlarini nechog‘lik o‘rganilganligi borasida atroflicha ma‘lumotlar mavjud. Tibbiyot, falsafa, tarbiya va shu kabi bir necha sohalar bo‘yicha asarlari yuqori qiziqish bilan keng qamrovda o‘rganilgan. Ushbu ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida o‘rganilgan bir qator adabiyotlar tahlili natijasida aytish mumkinki, mutafakkir asarlaridagi didaktik qarashlarni tadqiq etish borasidagi ishlarni hali yetarli darajada deya olmaymiz. Bu esa, ushbu yo‘nalishda ham qilinadigan ishlar mavjud ekanligidan dalolat beradi.

Tadqiqot davomida ilmiy, nazariy, uslubiy adabiyotlar, xorij va o‘zbek olimlarining qator ilmiy maqolalari, tezislari va adabiyotlarini nazariy tahlili va umumlashtirish, pedagogik kuzatish, qiyosiy-pedagogik tahlil kabi metodlardan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tarixiy taraqqiyot davomida ijtimoiy tajribalar ko‘payib borgan sari, ta‘lim jarayonida beriladigan bilimlar mazmunining xarakteri va doirasi ham o‘zgaradi. Shunday qilib, ma‘lum dasturga asoslangan, ma‘lum maqsadga qaratilgan maxsus ijtimoiy dorilfunun-maktab paydo bo‘la boshladi. Endi esa maktabdagi faoliyat turi, uni amalga oshirish usuli va vositalarini asoslab berish zarurati paydo bo‘lgan. Bu zaruratlar natijasida Didaktika fani vujudga keldi. Didaktika sohasida birinchi katta asani chex pedagogi Yan Amos Komenskiy o‘zining “Buyuk didaktika” asari orqali ommaga taqdim etdi. Bu asar orqali o‘qitish va tarbiya jarayonlari, o‘qitishning yo‘llari va didaktik prinsiplari, maktabda ta‘lim-tarbiya ishlarini tashkil qilish va shu kabi o‘qitishga, ta‘lim jarayoniga oid qator masalalarni ishlab chiqdi. Ushbu asar Didaktikaning alohida fan sifatida ajralib chiqishida asosiy rol o‘ynagan bo‘lsada, ungacha bo‘lgan muddatda bir qator allomalarning ta‘lim nazariyasiga oid qarashlarisiz, yozib qoldirgan ma‘lumotlarisiz bu fanni to‘liq holda tasavvur etolmaymiz. Bu qarashlar Didaktikaning ibtidoiy negizini tashkil qiluvchi muhim ilmiy-tarixiy manbalar hisoblanadi. Markaziy Osiyo allomalari ma‘naviy merosida ham didaktika sohasiga oid yozilgan bir qancha asarlarda ta‘lim qoidalari, ta‘limni tashkil etish, unda o‘qituvchining roli kabi masalalar bayon etilgan. Jumladan, Abu Ali ibn Sinoning “Tadbiri manozil”, “Donishnoma” kabi asarlari yorqin misol bo‘la oladi. Ushbu asarlarda mutafakkirning didaktik qarashlari o‘rin egallagan.

Ushbu asarlarida didaktikaning prinsiplariga, xususan, ko‘rsatmali o‘qitishga qiziqish bilan qaragan. Dars mashg‘ulotlarini ko‘rsatmali o‘qitish bilan uzviy bog‘liq holda tashkil qilish tolibi ilmlarning tasavvurlarini kengayishiga ta‘sir etishini ta‘kidlagan. Agar e‘tibor beradigan bo‘lsak, hozirgi zamonaviy ta‘lim texnologiyalari, darsni tashkil etishning zamonaviy metodlari aynan, ko‘rsatmalilikga asoslangan desak adashmagan bo‘lamiz. Shu o‘rinda, ko‘rsatmalilik nima? degan savolga javob berib o‘tsak.

Ko‘rsatmalilik deganda, avvalo o‘qitish va yangi bilimlarni o‘rganishning ko‘rsatmali usuli, o‘qituvchi bayonining manbai va uni ko‘rsatmali bo‘lishi, uning o‘quvchilardagi aniq tayyor obrazlarga suyana bilishi, o‘quv vositasi materialini bayon qilish vaqtida ko‘rsatmali qurolardan foydalanish va ko‘rsatmali qurollar yordamida o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish hamda ularning o‘rganilayotgan faktlarni, voqea va hodisalarni aynan o‘zini yoki ularning tasvirlarini ko‘rish yordamida o‘rganishlari tushuniladi. Ko‘rsatmali qurollar o‘quvchilarning tasavvurlariga aniqlik kiritish va bu tasavvurlarni aniqlashtirishga yordam beradi.

Shu tariqa ko‘rsatmalilik metodi:

1. Bilimlarning asosiy manbalarida biri bo‘lib xizmat qiladi.
2. O‘quv materialining ta‘lim-tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.
3. O‘qituvchi bayonining aniq, obrazli va ta‘sirchan bo‘lishiga yordam beradi.
4. O‘quvchilarning o‘quv materialini o‘rganishga qiziqishini oshiradi va ularning bilish faoliyatini faollashtiradi.

5. O'qituvchining bayonini va uning darsda qo'llangan boshqa o'quv usullarini o'quvchilarning tushunib olishini yengillashtiradi.

6. O'quvchilarning fikrlash faoliyatini va ijodiy qobiliyatini o'stiradi.

7. O'quvchilar bilimini aniq, chuqur va mustahkam bo'lishiga yordam beradi.

Yuqorida ko'rsatmalilikning foydali jihatlari va biz olishimiz mumkin bo'lgan natijalarni keltirib o'tdik. Hozirgi davr zamonaviy didaktikasida ham bu prinsip alohida o'ringa ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Alloma ham ushbu natijaviylikni oldindan prognoz qilgan holda ushbu metodni fanga o'rinli taqdim etganini qayd etishimiz mumkin. Mutaffakkir inson dastlabki o'quv mashg'ulotlarida buyumning tashqi xossasini o'rgansa, o'sha buyumni va uning tasvirini ko'rib chiqsa, o'zi mustaqil holda bilimlarni o'zlashtira oladi, deb hisoblagan. Olim inson haqiqatdan mavjud narsalarni yoki ularning tasvirini idrok etishi tufayli unda obyektiv voqelikni to'g'ri aks ettiradigan tasavvur shakllanishini uqtirgan.

Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy o'zining "Buyuk didaktika"(1632) asari orqali ta'limning sinf-dars tizimini nazariy jihatdan to'liq asoslab, o'qitish amaliyotiga joriy etdi. Bunga ko'ra, o'quvchilarni maktabga qabul qilish vaqti, bola yoshi, o'qishning boshlanish va tugash payti, o'quvchilarning o'qish vaqti qat'iy chegaralanadigan, mashg'ulotlar rejaga muvofiq muayyan tartibda tashkil etiladigan bo'ldi. Ibn Sinoning bolalarni aynan maktabda jamoa tashkil qilgan holda o'qitish lozim ekanligi va o'zi shogirdlariga tahsil berishda ushbu tizimdan keng foydalangani, Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan sinf-dars tizimiga mutanosib ekanligini ko'rishimiz mumkin. Qaysidir ma'noda aytishimiz mumkinki, allomaning bu boradagi qarashlari hozirgi zamonaviy ta'limda ham ommamiy ravishda foydalanayotganimiz, sinf-dars tizimining tarixiy asoslaridan biridir.

Ibn Sino ta'lim jarayonini amalga oshirishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim ekanligini ta'kidlaydi:

1. Bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda asosiy faoliyat turi o'yin ekanligini inobatga olsak, bilim berishda dastlab, turli xil o'yinlar, mashg'ulotlar orqali bolani ilmga jalb qilish lozim. Alloma ushbu fikri orqali bolalarga ta'lim berishning dastlabki bosqichlarida birinchi navbatda kitobga emas, yuqoridagi jarayonlar orqali ta'limga yo'naltirgan holda sekin-astalik bilan kitobga oshno qilish kerakligini e'tirof etmoqda. Bu orqali bolani ilmga nisbatan qiziqishini so'nishidan, zerikishidan himoya etib, oson adaptatsiyani ta'minlagan bo'lamiz.

2. Ta'limda yengildan qiyinga borish orqali bilim berish;

Bu o'rinda alloma bolaga ta'lim berishda oddiylikdan murakkablikka tomon harakatlanish lozimligini ta'kidlab o'tgan. Ta'lim oluvchiga ma'lum bir bilimni berishdan avval unda shu bilim bo'yicha tasavvurni shakllantirib olish kerak bo'ladi. Ta'limda oddiylikdan murakkablikka tomon harakatlanish bolada fundamental bilimlarning yaxshi shakllanishiga ham sabab bo'ladi.

3. Olib boriladigan mashqlar, mashg'ulotlar bola yoshiga mos bo'lishi;

Biz bilamizki, maktabgacha yoshdagi bolalarga bilim berish jarayonida asosiy faoliyat sifatida turli xil o'yinlardan foydalanamiz. O'yin orqali jarayonni tashkil etish bolani ilm olishga bo'lgan ishtiyoqini, qiziqishini, hohishini oshirishga xizmat qilishi shubhasiz. Chunki,

bola bu yoshda yosh xususiyatidan kelib chiqqan holda o'yinqaroq bo'ladi va ta'lim-tarbiya jarayonini o'yin orqali tashkil etish yaxshi samara beradi. Psixologlar tomonidan ham maktabgacha yoshdagi bolalar uchun asosiy faoliyat turi o'yin ekanligi ta'kidlangan. Umuman olganda, istalgan yosh toifasidagi kishilarga ta'lim berishda ularning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etishni ta'minlaydi. Allomaning ushbu qarashi ham didaktik jarayonlarni amalga oshirishda muhim jihat ekanligini e'tirof etish lozim.

4. O'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish;

Abu Ali ibn Sino ta'lim berishda o'quvchilarni jamoa bo'lib o'qitish g'oyasini ilgari surgan. Bolalarni bitta-bitta individual o'qitishdan ko'ra, jamoa tartibida o'qitishni afzal biladi va uni ustunligi haqida gapirib shunday yozadi: "O'quvchilar o'qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. O'z bilimlari bilan g'ururlanadilar, bir-birlarining bilimlariga havas qiladilar. G'urur va o'ziga e'tibor tarbiyalanuvchilarni bir-birlaridan orqada qolmaslikka undaydi.

O'quvchilar birga bo'lganda, doim bir-birlari bilan gaplashadilar va bu bilan o'z xotiralari va nutqlarini rivojlantiradilar". Alloma ham o'z shogirdlariga tahsil berishda aynan mana shu tizimdan foydalangan.

5. Bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;

Bolani ilm bilan band qilishda, albatta, uning qiziqishlariga va qobiliyatiga alohida e'tibor qaratish lozim. Alloma fikricha, bola o'zi qiziqqan soha bo'yicha yo'naltiriladigan bo'lsa u o'sha sohada muvaffaqiyat qozonishi ham oson bo'ladi. U ilmni faqat ilmligi uchun yoki hayotiy zarurat sifatida emas, balki qiziqishlarining bir bo'lagi, o'z hohishlarining ma'lum bir qismi sifatida qabul qiladi. Shuning uchun ham bolaga bilim berishda uning qiziqishlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Qobiliyatidan kelib chiqib bilim berish esa jarayonni osonlashtiradi va o'zlashtirishni tezlatadi. Kimdir yaxshi eslab qolish, kimdir yaxshi hisob-kitob, kimdir esa chizishga qobiliyatli bo'lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, boladagi qobiliyatni to'g'ri anglab, shu bo'yicha ma'lum bir ilm bilan band qilishlik yaxshi samara beradi. Ibn Sino bu borada quyidagi qarashlarni bayon etgan: U bolalarga Qur'onni va gramatik qoidalarni o'rgatib dinning maqsadlarini tushuntirib bo'lganidan so'ng, ularni ma'lum bir hunarga jalb etishni, hunar asoslarini egallashlariga e'tibor berishni, ular hunarni egallab, o'z hayotlarini ta'minlay olishlariga e'tibor berishni tavsiya etadi. O'qituvchi bolani hunarga o'rgatishda uning qobiliyati, iste'dodi, imkoniyatlarini e'tiborga olishi kerak, barchani birdaniga bir hunarga o'rgatib bo'lmaydi.

Demak, o'qituvchi bolalarga ta'lim berishga kirishishdan avval, o'quvchining xulq-atvorini o'rganishi va bilimlarini tekshirib ko'rishi kerak bo'ladi. Avvalo, u o'quvchining nimaga e'tibor berishini tekshirib ko'rishi, so'ngra unga hunar yoki ilm turini tavsiya etishi kerak.

6. O'qitishni jismoniy mashqlar bilan birga olib borish;

Abu Ali ibn Sino inson kamolotga erishmog'i uchun ham ma'nan, ham jismonan yetuk bo'lishi kerak deb hisoblagan. Bu qoidani o'z hayotida ham amaliy ravishda qo'llab kelgan. Manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, alloma yoshlik chog'laridanoq ilmda kamolot kasb etish bilan bir qatorda, jismoniy mashqlarni ham kanda qilmagan. Har kuni tongda

odatdagidan ertaroq uygʻonib, hali hovlida hech kim uygʻonmasidan burun, ibn Sino daraxt tanasidagi oʻzi chizgan nishonga qarab birin-ketin xanjar otardi. Bu mashgʻulot ketma-ket besh bor aniq moʻljalga tegmagunga qadar davom etardi. Soʻngra oʻzi yasagan oʻq yoyni olib nishonga qarata oʻq uzar, oʻn ikki oʻq birin-ketin moʻljalga borib qadalgandagina bu mashgʻulot yakuniga yetardi. Jismoniy mashqlar inson ruhiyatini tetiklashtirishi, uning aqliy faoliyatiga ijobiy taʼsir etishi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, alloma kishi kamolotga erishmogʻi uchun egallagan ilmi manfaatli boʻlishida, oʻrgangan bilimlarini kelajak avlodga qoldirmogʻi, bu yoʻlda duch keladigan toʻsiqlardan hayiqmasligi kerakligini taʼkidlaydi. Shu boisdan oʻz asarlarida “Ey birodarlar ! Odamlarning botiri mushkulotdan qoʻrqmaydi, kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qoʻrqogʻidir”, deb yozadi. Ilm va axloq uzviy bogʻliq tushuncha boʻlib, ular birgalikda insonni komil shaxs sifatida shakllanishida asosiy jihatlardan ekanligini bot-bot takrorlaydi. Ibn Sino fikricha, insondagi ijobiy axloqiy hislatlar qatoriga saxiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi-muhabbat, moʻtadillik, aqllilik, ehtiyotkorlik, qatʼiyatlilik, sadoqat, intilish, uyatchanlik, ijrochilik va shu kabi kishi tarbiyasida namoyon boʻlishi mumkin boʻlgan boshqa ijobiy sifatlar kiradi. Inson yomon illatlarni yengishda oʻz imkoniyatlarini ongli sarf etmogʻi lozim, deydi olim. Yuqoridagi hislatlarni ongli ravishda boshqarish, kishiga yomon illatlardan saqlanishda muhim vosita boʻlib xizmat etadi. Shuning uchun ilm olishda jismoniy mashqlarni birgalikda qoʻllash alohida ahamiyatga ega.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan fikrlarga nazar tashlar ekanmiz, Abu Ali ibn Sinoni oʻz zamonasining yetakchi pedagogi sifatida ham alohida qayd etsak mubolagʻa boʻlmaydi. Oradan bir necha asrlar oʻtgan boʻlsa hamki ushbu didaktik qarashlar oʻz dolzarbligini yoʻqotmagan holda, hozirgi zamon didaktikasi uchun ham birdek ahamiyatli ekanligi bilan qimmatlidir. Zero, pedagogik jarayonni tashkil qilishda ibn Sino koʻrsatmalaridan foydalanish jarayonni samarali tashkil qilishda muhim oʻringa ega ekanligini taʼkidlab oʻtish lozim.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Boydavlatov A. Abu Ali ibn Sinoning pedagogik qarashlari va yoshlar tarbiyasiga taʼsiri. Taʼlim va taraqqiyot, 1-son. 2023-yil, 13-mart.
2. Смирнова-Ракитина В.А. Абу Али ибн Сино қиссаси. – Т.: Ёш гвардия нашриёти, 1969.
3. Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi. Toshkent Aloqachi, 2006. – B.35-39
4. Boydavlatov A. Abu Ali ibn Sinoning pedagogik qarashlari yordamida komil inson shaxsini shakllantirish. Taʼlim va taraqqiyot, 2-son. 2023-yil, 11-may.
5. Hoshimov K. Oʻzbek pedagogikasi antologiyasi. Oʻqituvchi, 2010. – B.143-157.